

**YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHDA  
QO‘LLANILADIGAN USUL VA VOSITALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11498496>

**Bo‘ltaboyev Abdug‘ani Mamirovich**

*Farg‘ona davlat universiteti Harbiy ta‘lim fakulteti katta oqituvchisi*

**Annotatsiya:** *Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariyasi va amaliyotini o‘zlashtirish, yoshlarni harbiy xizmatga, o‘z vatani – O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishdagi vatan oldidagi burchlarini bajarishga har tomonlama tayyorlash – ta‘lim muassasalari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biridir.*

Tarbiya turlari orasida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi muhim o‘rin egallaydi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni ona-vatanga, uning shonli tarixiga, tinchlikparvar va bunyodkor xalqiga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash kerak.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishning asosiy yunalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

Barcha ijtimoiy-siyosiy faoliyat singari, harbiy vatanparvarlik ishida ham ma‘lum bir sistema-tizim, shakliy uslub mavjuddir.

U aniq bir vazifalarni, shakl va uslublar mazmunini, vositalarni, shuningdek, o‘ziga xos vazifalarni bajaruvchi davlat va jamoat korxonasi, tashkilot va muassasalarini o‘z ichiga oladi.

Bu sistema, shakl, birinchidan, kompleks xususiyatga ega, ya‘ni vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish barcha o‘quv-tarbiya muassasalarining vazifasidir.

Ikkinchidan, u uzluksizdir, chunki inson xayotining barcha davrlarida o‘z ta‘sir kuchida bo‘ladi.

Uchinchidan, u to‘liq bir shakldir, chunki u tarbiyaning barcha turlariga hamda armiya va xalqning birligiga tayanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan uch yunalish harbiy vatanparvarlik tarbiyasi sistemasining o‘zagini tashkil etadi.

Buni quyidagi sharxlar bilan yoritib berish mumkin:

Qachonki, qaysi bir davlat yoki armiya tarkibida sidqi dildan xizmat qilayotgan yoshlari axloqiy-siyosiy va psixologik jihatdan turg‘un bo‘lsa, ular o‘z vatanlariga cheksiz muhabbat va qo‘shinga sadoqatda bo‘lsa, ular o‘z ishlarining haq ekanliklariga chuqur ishonishsa, bu haq ish uchun, jonlarini ham fido etishga tayyor bo‘lsalar, bunday xalq yoki qo‘shin hech qachon yengilmasligiga tarix shohid. Chunki, ular siyosiy jihatdan yetuk, psixologik jihatdan esa turg‘un insonlar hisoblanadilar. Bunday insonlar mashaqqatlar, qiyinchiliklar oldida esankiramaydi, ikkilanmaydi, aksincha, ular bor shijoatlari ila va barcha vositalar bilan faqat g‘alaba uchun kurashadilar.

Tarixdan bizga ma'lumki, ko'p urushlar natijasi oxir-oqibatda jang qilayotgan tomon qo'shinlarining ruhiy holatida bog'liq bo'lgan.

Demak, shunday ekan, bizning vazifamiz o'z vataniga cheksiz sadoqatda bo'lgan, ruhiy jihatdan yetuk, turg'un yosh avlodni tarbiyalash, ulardan Vatan ravnaqi uchun, mustaqilligi uchun, zarur bo'lsa jonini fido etishga tayyor bo'lishdek xislatlarni shakllantirishdir.

Harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalanayotgan yoshlarimiz nafaqat siyosiy va ruhiy jihatdan, balki harbiy-texnik tayyorgarligi jihatidan ham yuqori saviyada tayyorlangan bo'lmog'i kerak. Bu vatanparvar yoshlarimiz harbiy bilimlar, malakalarni egallamog'i, ular intizomli va tartibli bo'lishlari, ayniqsa vatanparvarlik yaqqol namoyon boladigan armiya safarbarligida harbiy qasamyod va nizom talablarini so'zsiz bajarishlari, qo'l ostidagi jangovar texnika va qurollardan mohirona foydalana olishlari kerak deganidir.

Albatta, yuqorida aytilib o'tilgan barcha jangovar xislatlar, yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yunalishlaridan biri bo'lgan harbiy-texnik tayyorgarlikda shakllantiriladi.

Bu ishlarni amalga oshirishda harbiy-texnik jihatdan yuqori darajada tayyorlangan chaqiriluvchi yoshlarni tarbiyalashda chaqiriqqacha yoshlar tayyorgarligi mashg'ulotlari, «Vatanparvar» tashkiloti qoshidagi to'garaklar o'zlarini ulkan hissalarini qo'shishlari kerak.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasini asosiy yunalishlaridan yana biri, yoshlarning jismoniy tarbiyasi hisoblanadi. Bu yunalish yoshlarda jismoniy chiniqishni, ya'ni ularni harbiy xizmat davrida ham, tinchlik vaqtida ham katta jismoniy yuklarni (nagruzkalarni) sabot bilan yengish qobiliyati, ya'ni irodaviy sifatlarni tarbiyalaydi.

Jismoniy jihatdan chiniqqanlik – bu nafaqat sog'lom tanaga ega bo'lish, balki, bu vatan himoyasiga va mehnatga tayyorgarlik hamdir. Hozirgi statistik ma'lumotlarga qaraganda, yoshlarning 50 foizining salomatligi va jismoniy tayyorgarligi qo'yilayotgan talablarga javob bermaydi. Bu kamchiliklar umumiy o'rta ta'lim maktablarida, yoshlar tashkilotlarida, jismoniy tarbiyani talab darajasida olib borilmaganligi, bu muhim ishga, aytish mumkinki, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ishga ko'p hollarda yuzaki yondoshilayotganlikdan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda, O'zbekistonda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir necha qonun va qarorlar ana shu muammolarni bartaraf etish, yoshlarning jismoniy tarbiyasini yaxshilash maqsadidadir va bu borada sezilarli amaliy ishlar ham amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Respublikamizda bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2018-yilning 23 fevral kuni Vazirlar Mahkamasining 140-sonli qarori bilan Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi kuchga kirdi. Bu Konsepsiya – mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat

tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

Mazkur Konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta'lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas bir qismi sifatida qaralib, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari asosan to'rt bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqich 3-7 yoshdagilar, 2-bosqich 7-16 yoshdagilar, 3-bosqich 16-18 yoshdagilar, 4-bosqich 18-30 yoshdagilar kiradi.

Birinchi bosqich (3-7 yoshdagilar) atrofdagi olam, vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda (7-16 yoshdagi bolalar) o'quvchilarning vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, harbiy xizmatga va ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarishga bo'lgan havasini oshirish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, yoshlarning jismonan sog'lom, kuchli va irodali ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi.

Uchinchi bosqich (16-18 yoshdagi o'smirlar) yoshlarda vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi.

To'rtinchi bosqich (18-30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi.

Mazkur Konsepsiya yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik pozitsiyasi, vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish, vatanga fidoyilik va sodiqlik bilan xizmat qilishga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, milliy armiya saflarini zamonaviy bilim va professional malakaga, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini beradi.

Inson tarbiyasi oiladan boshlanadi, so'ng maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, kollej yoki institut, armiyada davom etadi. Har bir bosqichda yoshlarning kamol topayotgan

ongini yot g'oyalardan ehtiyot qilish kerak. Konsepsiya shu muhim masalani hal etishga ham xizmat qiladi.

Mamlakat mudofaasiga yoshlarni tayyorlash bilan shug'ullanadigan barcha muassasa, tashkilotlar faoliyatining doimiy o'zaro muvofiqligi prinsipi. O'quv yurti "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" o'qituvchisi hokimiyat, mudofaa ishlari bo'limlari, favqulotda vaziyatlar boshqarmasi va tuman shtabi, "Vatanparvar" tuman qo'mitasi, harbiy qism va bo'linmalar, mahalla qo'mitalari bilan doimiy aloqada bo'lishi shart.

Mashg'ulot va darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublarini ko'rib chiqamiz.

Mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlari, buyuk Amir Temur va boshqa sarkardalar jangovar merosi yutuqlari haqidagi ma'ruza, suhbatlar tayyorlash va o'tkazish.

1. Urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar.
2. O'zbekistonlik jangchilar, maktab bitiruvchilari bo'lgan jangovar va siyosiy tayyorgarlik a'lochilari bilan uchraShuvlar.
3. E'tiborga sazovor sanalarga bag'ishlangan kechalar.
4. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mavzu bo'yicha konferensiyalar o'tkazish.
5. Harbiy qism va harbiy o'quv yurtlariga ekskursiyalar.
6. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mavzusiga oid kinofilm, teleko'rsatuvlar ko'rish va ularni jamoada muhokama qilish.
7. Kitobxonlikni jamoada muhokama qilish, qahramonlari, yozuvchilar va olimlar bilan uchrashish.
8. Muzey, memorial komplekslarga borish, urushda halok bo'lgan jangchilar birodarlik qabrini ziyorat qilish.
9. Xalq jangovar va mehnat shon – Shuhrati joylariga safarlar uyushtirish.
10. Turli harbiy sport musobaqalari va o'yinlarida qatnashish
11. Harbiy texnik to'garaklar ishida qatnashish.
12. Harbiy vatanparvarlik mavzusiga bag'ishlangan eng Yaxshi insho, hikoya, rasmlar ko'rgazmasi, ko'riklarini tashkil qilish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining qaysi bir shakli o'tkazilmasin, uning mazmundorligi, tarbiyaviy maqsadiga eriShuvchanlik muhim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi 1992. -160
2. Do'stmuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.K., Alimbayeva Sh.T. "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya" – Toshkent: TDPU, 2013.
3. Inoyatov I.Y., Abilov M.X. «Vatan himoyasi muqaddas burch» Toshkent. "O'zbekiston". 2001y.
4. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya. Toshkent. «Fan» nashriyoti 2004.
5. Ortiqov O. va boshqalar. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2013-y